

O'zbekiston Respublikasi MCHJ shaklidagi "AUDIT-HISOB MARKAZI" auditorlik tashkiloti		Республика Узбекистан АО в форме ООО "AUDIT-HISOB MARKAZI"
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining ruxsatnomasiga ega bo'lgan Auditorlik tashkilotlari reestriga kirgan.		Включён в реестр аудиторских организаций, имеющих разрешение Министерство Экономики и финансов Респ. Узбекистан

«Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ
aksiyadorlariga

**«Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ (STIR: 200 697 734) ning
2024 yilgi moliyaviy hisobotlarini xalqaro audit standartlari talablariga
muvofig audit tekshiruvidan o'tkazish yuzasidan
MUSTAQIL AUDITOR XULOSASI**

Auditor fikri

Biz korxonaning quyidagi moliyaviy hisobotlari va u bilan bog'liq axborotlar auditini o'tkazdik:

- yuqorida ko'rsatilgan sanalarda tuzilgan "Buxgalteriya balansi";
- ko'rsatilgan sanalarda tugagan yil uchun tuzilgan "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot";
- hisob siyosati ahamiyatli qoidalarining qisqacha tavsifi va boshqa izohlovchi ma'lumotlar.

Bizning fikrimizcha, ilova qilingan moliyaviy hisobotlar «Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ ning 2024 yil 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo'lgan davrda moliyaviy holatini, ko'rsatilgan sanalarda tugagan yil mobaynidagi uning moliyaviy natijalarini to'g'ri aks ettirgan.

Izohli fikr bildirish uchun asos

Jamiyatning "Buxgalteriya balansi"da muddati o'tgan debitor va kreditor qarzlari ko'rsatilmagan.

Biz auditni Auditning Xalqaro Standartlariga muvofiq o'tkazdik. Ushbu standartlar moliyaviy hisobotlar jiddiy buzib ko'rsatishlarga ega emasligiga etarli darajadagi ishonchga ega bo'lishni ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini rejalashtirishni va o'tkazishni taqozo etadi. Jamiyatning 2024 yilgi balansida ishchi-xodimlarning ish haqi bo'yicha jamiyatdan qarzdorligi hamda muddati o'tgan debitor va kreditor qarzdorliklari aks ettirilmagan.

Mazkur standartlarga ko'ra bizning majburiyatlarimiz "Moliyaviy hisobot audit uchun auditorning mas'uliyati" nomli bo'limda bayon qilingan. Biz audit jarayonida olgan auditorlik dalillarini o'z fikrimizni bildirishda asos sifatida tayanish uchun etarli deb hisoblaymiz.

Mustaqillik

Biz audit qilinyotgan korxonaga nisbatan buxgalterlar uchun axloq standartlari bo'yicha Xalqaro Kengash tomonidan professional buxgalterlar uchun ishlab chiqilgan Axloq kodeksiga muvofiq va «Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ ning moliyaviy hisobotlari audit bo'yicha axloqiy talablarga nisbatan mustaqil hisoblanamiz va mazkur talablar hamda Axloq kodeksiga tegishli boshqa majburiyatlarni bajardik.

Muhimlik

O'tkazilgan auditorlik tekshiruvi ko'lamini aniqlashga muhimlik darajasini qo'llash o'z ta'sirini ko'rsatgan. Audit tekshirilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko'rsatishlarga ega emasligi yuzasidan oqilona ishonch hosil qilishga yo'naltirilgan.

Muhim buzib ko'rsatishlar korxona xodimlarining faoliyat davomida amalga oshirgan noqonuniy harakatlari va xatoliklari natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Muhimlik darajasini aniqlashda biz xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan uslubiyotga asoslangan va auditor hisobotiga ilova qilingan hisob-kitobni amalga oshirdik va korxonaning 2024 yil moliyaviy hisobotlari bo'yicha uning muhimlik darajasini balans valyutasiga nisbatan 5,0 % miqdorida belgiladik.

Auditning muhim savollari

Auditning muhim savollari - bular bizning professional mulohazamizga ko'ra joriy davr uchun tuzilgan moliyaviy hisobotlar bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan savollardir. Mazkur yo'nalishda biz e'tiborimizni korxonaning aktivlari, majburiyatlari, xususiyl kapitali, daromadlari, xarajatlari, soliq to'lovlari, sof foydasi va uning ishlatilishini o'rganishga qaratdik va auditor hisobotida bu borada o'z fikrimizni bildirdik.

Boshqa axborot

Auditni o'tkazish jarayonida tekshirilgan moliyaviy hisobotlar o'rtasida muhim ziddiyatlar bor yo'qligini aniqlash va korxonada qonunchilikka rioya qilinishini o'rganish maqsadida boshqa moliyaviy hamda nomoliyaviy ma'lumotlar bilan tanishib chiqildi va ular bilan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari o'rtasida muhim ziddiyatlar mavjud emasligiga ishonch hosil qilindi.

Korxona faoliyatini boshqarish va moliyaviy hisobot uchun rahbar shaxslarning mas'uliyati

Korxona rahbariyati mazkur moliyaviy hisobotni Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq tayyorlash va haqqoniy taqdim etish, shuningdek, firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlardan holi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblaydigan ichki nazorat tizimini ta'minlash uchun javobgar bo'ladi.

Boshqaruv yuklatilgan shaxslar moliyaviy hisobotni tuzish jarayonida korxona yaqin kelajakda o'z faoliyatini uzluksiz davom ettira olishi qobiliyatini baholashi, tegishli holatlarda uzluksiz faoliyatga tegishli ma'lumotlarni ochib berishi uchun mas'ul hisoblanadilar.

Bunda korxonani tugatish, uning faoliyatini to'xtatish yoki bu harakatlarni amalga oshirmaslikning boshqacha echimi topilmagan holatlar bundan mustasno.

Moliyaviy hisobot auditi uchun auditorning mas'uliyati

Bizning maqsadimiz audit qilinayotgan moliyaviy hisobot nojo'ya harakatlar va xatolar ta'siridagi muhim buzib ko'rsatishlardan holi ekanligiga oqilona ishonch hosil qilish va o'z fikrimiz bayon etilgan auditorlik xulosasini e'lon qilishdan iborat.

Oqilona ishonch ishonchning yuqori darajasi bo'lsa-da, AXSlariga muvofiq o'tkazilgan audit moliyaviy hisobotda mavjud bo'lgan muhim buzib ko'rsatishlarni barchasini aniqlash imkonini bermaydi.

Buzib ko'rsatishlar alohida yoki jamlama holda mazkur moliyaviy hisobot asosida foydalanuvchilarni iqtisodiy qaror qabul qilishlariga ta'sir ko'rsatsa, nojo'ya harakatlar natijasi deb qaraladi va muhim bo'lib hisoblanadi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazishning barcha jarayonlarida biz AXS ga muvofiq professional mulohazani qo'llagan va professional skeptisizmni saqlagan holda harakat qildik.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida biz quyidagilarni bajardik:

- korxona masul shaxslarining nomaqbul harakatlari va xatolari ta'sirida moliyaviy hisobotda buzib kursatishlarning mavjudligi riski darajasi aniqlandi;
- audit taomillarini belgilash maqsadida korxonadagi ichki nazorat tizimi to'g'risida tushunchaga ega bo'lindi;
- korxonaning hisob siyosati o'rganib chiqildi va uni korxona faoliyatiga mos kelish darajasiga baho berildi;
- korxona faoliyatining uzluksizligi borasida rahbar shaxslar bergan baholarning haqiqatga mos kelishi to'g'risida xulosa qilindi;
- tekshirilayotgan moliyaviy hisobot bo'yicha fikr bildirish uchun etarli auditorlik dalillarining yig'ilganlik darajasi o'rganildi.
- moliyaviy hisobot, uning tarkibi va mazmuni to'g'risida olingan ma'lumotlarga umumiy baho berildi hamda uning haqqoniy taqdim qilinganlik darajasiga fikr bildirildi.

Bundan tashqari auditorlik yozma axborotida korxona rahbariyatiga korxonadagi mavjud hisob va nazorat tizimini yanada takomillashtirish borasidagi tavsiyalarimizni bayon qildik va korxona moliyaviy holati tahlili bo'yicha amalga oshirgan hisob kitoblarimizni taqdim etdik.

04.04.2025 yil


(imzo)



Ergasheva Z.E.

MCHJ «AUDIT-HISOB MARKAZI» AT
bosh direktori, auditor

STIR: 203 798 660

O'zbekiston. Qarshi sh, I.Karimov 212/65 uy


«Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ
(2024 yil 31 dekabr)

Statement of Financial Position


Молиявий ҳолат тўғрисидаги ҳисобот

ASSETS	АКТИВЫ	Year ended (yil oxirida) 2023	Year ended (yil oxirida) 2024
Non-current assets	Uzoq muddatli aktivlar	29 188 758,0	20270172,0
Property, plant and equipment	Asosiy vositalar	14 530 609,0	16497665,0
Investment property	Investision mulk	4 366 241,0	3414043,0
Deferred tax assets	Muddati uzaytirilgan soliq aktivlari	177 540,0	358464,0
Others long-term assets	Boshqa uzoq muddatli aktivlar	10 114 368,00	1273044,0
Current assets	Qisqa muddatli aktivlar	40 528 540,0	50772958,0
Inventories	Zahiralar	1 574 704,00	2098854,0
Trade and other receivables	Xaridor va buyurtmachilar hamda boshqa debetor qarzlar	28 561 429,0	44622416,0
Prepayments	Bo'naklar	6 667 367,0	1157204,0
Other current assets	Boshqa qisqa muddatli aktivlar	1 940 724,0	-
Cash and cash equivalents	Pul mablag'lari va uning ekvivalentlari	1 784 316,00	2894484,0
Total assets	Jami aktivlar	69 717 298,0	71043130,0
EQUITY AND PROVISIONS	Kapital va Rezervlar	57 874 867,0	61859422,0
Authorized capital	Ustav kapitali	7 761 600,0	7761600,0
Other capital	Boshqa capital	4 958 784,0	4958585,0
Reserve capital	Rezerv kapitali	1 164 247,0	1164247,0
Retained earnings	Taqsimlanmagan foyda/qoplanmagan zarar	43 990 236,0	47974990,0
Non-current liabilities	Uzoq muddatli majburiyatlar	5 412,0	91977,0
Long-term borrowing	Uzoq muddatli qarzдорliklar	-	-
Deferred tax	Soliq majburiyatlari	5 412,0	91977,0
Current liabilities	Qisqa muddatli majburiyatlar	11 837 019,0	9091731,0
Trade and other accounts payable	Savdo va boshqa kreditor qarzlar	10 653 416,0	6701967,0
Current liabilities	Qisqa muddatli majburiyatlar	-	-
Provision for doubtful debts	Dargumon qarzlar bo'yicha rezerv	1 085 130,0	1334654,0
Reserve on leave	Mehnat ta'tili bo'yicha rezerv	98 473,0	1055110,0
Total equity and liabilities	Jami kapital va rezervlar	69 717 298,0	71043130,0

Rahbar (Head):



Bosh hisobchi (Chief Accountant):




Statement of Profit or Loss and Other Comprehensive Income

Фойда ва зарарлар тўғрисидаги ҳисобот

Показатели Indicators	Year ended (yil oxirida) 31.12.2023	Year ended (yil oxirida) 31.12.2024
Revenues (Daromadlar)		
Sale of goods (Sotishdan daromadlar)	94 579 168,00	105 015 082,0
Cost of Sales (Sotilgan mahsulotlar, ish va xizmatlar tannarxi):	(79 767 745,0)	-86002873,0
Gross Profit (Yalpi foyda)	14 811 423,0	19 012 209,0
Selling and distribution costs (Sotish xarajatlari)		
General and administrative expenses (Umumiy va ma'muriy xarajatlar)	(3 315 675,0)	-3434472,0
Other operating Expenses (Boshqa operasion xarajatlar)	(8 000 732,0)	-9791576,0
Other operating income, net (Boshqa operasion daromadlar)	1 066 149,00	59114,0
Profit from operating activities (Asosiy faoliyatning foydasi (zarari))	4 561 165,00	5 845 275,0
financial income (moliyaviy daromadlar)	-	-
financial expense (moliyaviy xarajatlar)	-	-
Profit before income taxes (Foyda soligi tolagunga qadar foyda (zarar))	4 561 165,0	5845275,0
Income tax expense (Daromad (foyda) solig'i)	-1 164 572,00	-1 396 762,0
Net profit (Hisobot davrining sof foydasi (zarari))	3 396 593,00	4 448 513,0

Б Other generated income (Прочие совокупные доходы)	Year ended (yil oxirida) 31.12.2023	Year ended (yil oxirida) 31.12.2024
Profit (loss) from revaluation of fixed assets (Asosiy vositalarni qayta baholashdan foyda (zarar))	-	-
Income tax expense (Daromad (foyda) solig'i)	-	-
Profit from write-off overdue creditor debts (Muddati otgan kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan foyda)	36 082,0	248,0
Income tax expense (Daromad (foyda) solig'i)	5 412,0	37,0
Other total annual income (Jami yillik boshqa umumlashgan daromadlar)	30 670,0	211,0
Total net profit (loss) for the reporting (Hisobot davrining jami sof foydasi (zarari))	3 427 263,0	4448724,0

Rahbar (Head):

Bosh hisobchi (Chief Accountant):



Statement of Cash Flows
Пул маблағлари ҳаракати тўғрисида ҳисобот

Ko'rsatkichlar Indicators	Year ended (yil oxirida) 2023	Year ended (yil oxirida) 2024
Operasion faoliyatda pul mablag'larining oqimi (Cash flows from operating activites)		
Foyda solig'i to'langunga qadar foyda yoki zarar (Profit before income taxes)	4 561 165,0	5845275,0
Korrektura bilan (with adjustment)		
Asosiy vositalarning qadsizlanishi va amortizasiyasi (depreciation and depreciation of fixed assets)	4 080 086,0	6870736,0
Valyuta kurs farqidan olingan zarar (Loss from exchange rate difference)		
Valyuta kurs farqidan olingan foyda (Profit from exchange rate difference)		
Savdo va boshqa debetor qarzlarning qadsizlanishi (Depreciation of trade and other receivables)	(1 085 130,0)	-1334654,0
Zahiralarning qadsizlanishi (Depreciation of stocks)		
Investisiyalarning qadsizlanishi /(qadsizlanishni tiklash) (Depreciation of investments)		
Foyiz xarajatlari (interest expenses) Foyiz daromadlari (interest income)		
Asosiy vositalarni chiqishidan foyda (profit on leaving of fixed assets)	406 828,0	-
Aylanma kapitalning o'zgarishigscha operasion faoliyatda pul mablag'larining oqimi: (operating cash flows before changes of a working capital)	7 962 949,0	11381357,0
Soliq aktivlarining (ko'payishi)/kamayishi (increase)/reduction in deffered tax assets	(117 015,0)	180924,0
Savdo va boshqa debetorlik qarzlarning (ko'payishi)/kamayishi (increase)/reduction of trade other receivables	(5 069 094,0)	10550824,0
Zahiralarning (ko'payishi)/kamayishi (increase)/reduction of stoks	58 013,0	524150
Savdo va boshqa kreditorlik qarzlarning (ko'payishi)/kamayishi (increase)/reduction of trade other accounts payable	(7 396 984,0)	-3951449
Boshqa pul mablag'larining (ko'payishi)/kamayishi (increase/ decrease in other funds)	11 238 833,0	-15736089,0
Uzoq muddatli kreditorlik qarzlarning (ko'payishi)/kamayishi increase/(reduction) of long term accounts payable	-	-
Aylanma kapitalning o'zgarishi (changes in working capital)	6 676 702,0	2949717,0
To'langan foyda solig'i (income tax paid)	-2 209 366,0	-790 974,0
To'langan dividendlar (The dividends paid)	(256 890,0)	-647560,0
To'langan foizlar(The percent paid)		-
Operasion faoliyatdan olingan pul mablag'larining sof summasi (Pure the money received from operating activities)	4 210 446,0	1511183,0
Investision faoliyatda pul mablag'larining oqimi (Cash flows from investment activity)		
Asosiy vositalarni xarid qilish uchun (Acquisition of fixed assets)	(2 544 682,0)	-401015,0
Boshqa aktivlarni xarid qilish uchun (Acquisition of other long-term assets)	-	-
Investision faoliyatdan olingan pul mablag'larining sof summasi (Pure money from investment activity)	-2 544 682,0	-401 015,0

Moliyaviy faoliyatda pul mablag'larining oqimi (Cash flows from financial activity)		
Kredit va qarzlarni kirimi uchun (receipt of the credits and loans)		-
Kredit va qarzlarni qoplash uchun (Repayment of the credits and loans)		-
Moliyaviy faoliyatdan olingan pul mablag'larining sof summasi (Pure money from financial activity)		
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini sof (ko'payishi)/kamayishi summasi (Pure increase / (reduction) in money and their equivalents)	1 665 764,0	1110168,0
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini yil boshidagi summasi (Money and their equivalents for the beginning of year)	118 552,0	1 784 316,0
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini yil oxiridagi summasi (Money and their equivalents on the end of the year)	1 784 316,0	2894484,0

Rahbar (Head):

Bosh hisobchi (Chief Accountant):



Statement of Changes in Equity
Капитал ўзгариши ҳақида ҳисобот

Ko'rsatkichlar nomi (indicator)	Ustav kapitali (Authorized capital)	Boshqa kapital (Other capital)	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (Retained earnings (uncovered loss))	Rezerv kapitali (Reserve capital)	Jami (Total)
1	3	4	5	6	9
2024 yil boshiga qoidiq (Balance at beginning of 2024 year)	7 761 600,0	4 958 784,0	44 560 947,0	1 164 247,0	58 445 578,0
Yillik foyda (Profit in a year)	-	-	4 448 724,0	-	4 448 724,0
2024 yil jami umumlashgan foyda (Total the cumulative income for 2024)	-	-	0,0	-	0,0
Xususiy kapitalning (ko'payishi) /kamayishi (Increase/decrease of private capital)	-	-	0,0	-	0,0
Hisoblangan dividendlar (Accrued dividends)	-	-	-1 034 880,0	-	-1 034 880,0
Tekinga olingan mulk (Gratuitously received property)	-	-	-	-	-
Rezerv kapitaliga ajratma (Contributions to the reserve capital)	-	-	-	-	-
2024 yil oxiriiga qoidiq (In total at end of 2024 year)	7 761 600,0	4 958 784,0	47 974 791,0	1 164 247,0	61 859 422,0

Rahbar (Head):

Bosh hisobchi (Chief Accountant):

